



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 422 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	
O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni	229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna	
Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды.....	234
Умматалиева Шерзода Шерали угли	
Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish.....	239
Baratov Nasriddin Karshibayevich	
O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlarini	243
Fayziyeva Nodira Sobirovna	
Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari	247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova	
Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)	252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	
O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich	
Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari	261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli	



Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	265
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G'ulomovich</i>	
Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	270
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli</i>	
Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o'smirlar misolida)	275
<i>Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li</i>	
O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari	278
<i>Suvanova Baxtigul Baxridinovna</i>	
Xalqaro tajriba asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	283
<i>Azimov I. T., Mirzayeva N. I.</i>	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish	288
<i>Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna</i>	
Yuqori malakali o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	292
<i>Nazarov Nuriddin Baxranovich</i>	
Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli	297
<i>Jabborova Yulduzxon Hasan qizi</i>	
Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari	301
<i>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</i>	
Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o'rni	304
<i>Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna</i>	
Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства	307
<i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	311
<i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>	
Texnologik ta'limda xorijiy tajriba	316
<i>Lochinbek Abdirasulov</i>	
Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	319
<i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	324
<i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>	
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida	328
<i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>	
Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ	332
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	335
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari	339
<i>D. G. Umnov</i>	
Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari	344
<i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari	347
<i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi	351
<i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>	
Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi	354
<i>Ikrom Qodirov</i>	

Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati	357
<i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	361
<i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari	364
<i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	367
<i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....	370
<i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>	
Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi	373
<i>Jo'raboieva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....	377
<i>Kozimova Sadoqat</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	380
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....	383
<i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	386
<i>Nurulloyev Firuz No'monjonovich</i>	
Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....	390
<i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	393
<i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>	
Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni	398
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish	402
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarining og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish	406
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....	409
<i>Гуламов Жасур Баходирович</i>	
Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии	413
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	

KRITIK FIKRLASH KOMPETENSIYASINING PEDAGOGIK VA DIDAKTIK MAZMUNI

Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni summativ baholash bilan bog'liq ta'lim jarayoni nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvda kritik fikrlash alohida aqliy amal emas, balki dalil bilan ishlash, muammoni ko'ra olish, farazni tekshirish, xulosani asoslash, qarama-qarshi pozitsiyalarni solishtirish, refleksiya yuritish va qaror qabul qilishni birlashtiruvchi murakkab integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada kritik fikrlashning pedagogik mazmuni shaxsning intellektual mustaqilligi, bilish faolligi, dalilga sodiqligi, muloqot madaniyati va mas'uliyatli tanlovga tayyorligi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: kritik fikrlash, kompetensiya, pedagogik mazmun, didaktik mazmun, summativ baholash, kriterial baholash, refleksiya, argumentatsiya, metakognitsiya, o'quv topshirig'i, teskari aloqa, rivojlantiruvchi ta'lim.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and didactic content of critical thinking competence from the perspective of the educational process associated with summative assessment. Within the modern competency-based approach, critical thinking is not viewed as a separate mental operation but as a complex integrative quality that combines working with evidence, the ability to identify problems, test hypotheses, justify conclusions, compare opposing positions, engage in reflection, and make decisions. The pedagogical content of critical thinking is interpreted through intellectual independence, cognitive activity, commitment to evidence, communication culture, and readiness for responsible decision-making.

Key words: critical thinking, competence, pedagogical content, didactic content, summative assessment, criterion-based assessment, reflection, argumentation, metacognition, learning task, feedback, developmental education.

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическое и дидактическое содержание компетенции критического мышления с точки зрения образовательного процесса, связанного с суммативным оцениванием. В современном компетентностном подходе критическое мышление рассматривается не как отдельное умственное действие, а как сложное интегративное качество, объединяющее работу с доказательствами, способность выявлять проблему, проверять гипотезы, обосновывать выводы, сопоставлять противоположные позиции, осуществлять рефлексия и принимать решения. В статье педагогическое содержание критического мышления раскрывается через интеллектуальную самостоятельность личности, познавательную активность, приверженность доказательности, культуру общения и готовность к ответственному выбору.

Ключевые слова: критическое мышление, компетенция, педагогическое содержание, дидактическое содержание, суммативное оценивание, критериальное оценивание, рефлексия, аргументация, метакогниция, учебное задание, обратная связь, развивающее обучение.

KIRISH

Ta'lim mazmunining kompetensiyaviy asosda yangilanib borishi o'quvchidan tayyor axborotni takrorlashni emas, balki uni tahlil qilish, tanlash, solishtirish, izohlash va asoslashni talab etmoqda. Bunday vaziyatda kritik fikrlash kompetensiyasi ta'lim natijasining markaziy ko'rsatkichlaridan biriga aylanadi. Mazkur kompetensiya faqat mantiqiy operatsiyalar yig'indisi bilan cheklanmaydi. U shaxsning dalil va hukm o'rtasidagi munosabatni anglay olishi, xatoga moyillikni sezishi, noaniq vaziyatda asosli qaror qabul qilishi, o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishi, boshqa nuqtai nazarni eshitishi va baholashi bilan ham belgilanadi. OECD materiallarida kritik fikrlash g'oyalar hamda yechimlarni savolga tutish va baholash bilan bog'liq maqsadli fikrlash sifatida talqin qilinadi ^[1]. Mazkur yondashuv kritik fikrlashni tayyor javobni inkor etish emas, balki mazmunli tekshiruv, dalillash va oqilona xulosa chiqarish madaniyati sifatida ko'rishga imkon beradi.

Pedagogik adabiyotlarda kritik fikrlash ko'pincha yuqori darajadagi tafakkur, muammoli fikrlash, refleksiv fikrlash, analitik yondashuv singari tushunchalar bilan yonma-yon qo'llanadi. Biroq ularning har biri mazkur hodisaning ma'lum bir qirrasini yoritadi, xolos. Kompetensiya kategoriyasi esa bilim, ko'nikma, munosabat,



qadriyat va tajribaning amaliy faoliyatda namoyon bo'ladigan birligini anglatadi. Demak, kritik fikrlash kompetensiyasi haqida so'z borganda, o'quvchi nimani bilishi emas, balki u bilganini qanday qo'llashi, dalilni qanday tanlashi, qanday savol berishi, qay tarzda xulosa chiqarishi va o'z hukmini qay darajada asoslay olishi hal qiluvchi mezonga aylanadi. Ayniqsa, summativ baholash sharoitida bu masala dolzarb tus oladi, chunki yakuniy baholash ko'pincha natijani qayd etish vositasi sifatida qaraladi. Aslida esa mazmunan to'g'ri loyihalangan summativ baholash o'quvchining kritik fikrlashini namoyon etuvchi va uni rag'batlantiruvchi kuchli didaktik mexanizm bo'lishi mumkin ^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada analiz, sintez, qiyosiy-pedagogik talqin, tushunchaviy modelashtirish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Kritik fikrlashning mazmuni haqidagi zamonaviy qarashlarni tizimlashtirish uchun xalqaro va milliy pedagogik manbalarda uchraydigan ta'riflar, kritik fikrlashni baholashga doir yondashuvlar, refleksiv ta'lim va kriterial baholash konsepsiyalari o'zaro solishtirildi. Tahlil jarayonida kritik fikrlashning faqat natijaviy emas, balki jarayonli tabiatga egaligi asosiy metodologik nuqta sifatida qabul qilindi. Bunday nuqtai nazar o'quvchining tayyor xulosasidan tashqari xulosaga olib kelgan aqliy yo'lni ham didaktik qiymatga ega deb biladi. Shu sababli kritik fikrlash kompetensiyasini izohlashda dalilni tanlash, mezonni qo'llash, qarshi dalilni ko'rish, xatoni tan olish, o'z fikrini qayta qurish singari jarayonli ko'rsatkichlar markazga qo'yildi.

Nazariy manbalar kritik fikrlashni turli yo'sinda izohlaydi, lekin ular orasida umumiy tayanch nuqtalar mavjud. Ulardan biri kritik fikrlashning maqsadga yo'naltirilgan va o'zini nazorat qiluvchi fikrlash ekanidir ^[1]. Ikkinchisi, u ta'limning tabiiy qo'shimchasi emas, balki maxsus tashkil etilgan topshiriq, muammoli vaziyat, savol va muloqot orqali shakllantiriladigan sifaddir ^[3]. Uchinchi jihat, kritik fikrlashni baholash faqat test topshiriqlari bilan tugamaydi; argument yozish, dalilni tahlil qilish, muqobil yechimlarni taqqoslash, ochiq savolga javob berish va refleksiv yozuv kabi faoliyat turlari ham zarur ^[4]. Demak, kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmunini ochish uchun uni shaxsiy sifat, o'quv faoliyati mexanizmi va baholash obyekti sifatida bir butun tizimda ko'rib chiqish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan nazariy tahlil kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik mazmuni kamida besh asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Birinchi yo'nalish intellektual mustaqillik bilan bog'liq. O'quvchi tayyor hukmga ergashishdan ko'ra muammoni o'zi tahlil qiladi, savol qo'yadi, manbalarni solishtiradi va hukmning asos-liligini tekshiradi. Ikkinchi yo'nalish bilish faolligi hamda qidiruvchanlikdir. Kritik fikrlashga ega o'quvchi javobni qabul qilishdan oldin uning manbasi, ishonchliligi va amaliy qiymatini aniqlashga intiladi. Uchinchi yo'nalish dialogik madaniyatdir. Mazkur kompetensiya boshqa pozitsiyani inkor etish orqali emas, balki uni tinglash, tahlil qilish va dalil asosida munosabat bildirish orqali rivojlanadi. To'rtinchi yo'nalish refleksiv mas'uliyatdir. O'quvchi o'z xulosasining zaif nuqtalarini ko'ra oladi, xatoni tan oladi va tuzatishga tayyor bo'ladi. Beshinchi yo'nalish qadriyatli tanlovdir. Kritik fikrlash faqat sovuq mantiq emas; u axborot, munosabat va qarorlarning ijtimoiy oqibatini anglash bilan ham chambarchas bog'liq ^[5].

Didaktik nuqtai nazardan kritik fikrlash kompetensiyasining mazmuni ta'lim jarayonining barcha komponentlarida aks etadi. Maqsad bosqichida o'quv natijasi sifatida faqat bilimni qayta aytish emas, balki dalillangan xulosa chiqarish, muqobil fikrni tahlil qilish, mezon asosida baho berish singari natijalar belgilanadi. Mazmun bosqichida o'quv materiali bir ma'noli va yopiq shaklda emas, balki talqin, qiyos, muammo, ziddiyat va dalil manbalari bilan boyitilgan holda tanlanadi. Metod bosqichida muammoli ta'lim, munozara, keys, loyiha, argument xaritasi, refleksiv yozuv, savol-javobning chuqurlashtirilgan shakllari ustunlik kasb etadi. Vosita bosqichida jadval, rubrika, dalil kartalari, manba tahlili varaqalari, kuzatish mezonlari hamda o'zini baholash blankalari muhim ahamiyatga ega. Natijani aniqlash bosqichida esa to'g'ri javobning o'zi emas, balki javobga olib kelgan fikrlash yo'li, asoslantirish sifati va xulosa barqarorligi baholanadi ^[3].

Kritik fikrlash kompetensiyasining tarkibini aniqlashtirish maqsadida uni quyidagi komponentlar birligida talqin qilish maqsadga muvofiq deb topildi: kognitiv komponent, metakognitiv komponent, argumentativ-kommunikativ komponent, aksiologik komponent va amaliy-transfer komponent. Kognitiv komponent tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibatni ajratish, dalil va hukmni farqlash kabi amallarni o'z ichiga oladi. Metakognitiv komponent fikrlash jarayonini rejalashtirish, kuzatish, nazorat qilish va qayta qurish bilan xarakterlanadi. Argumentativ-kommunikativ komponent o'z fikrini ravon, dalilli va mantiqiy ifodalash, qarshi dalilga munosabat bildirish, savolni aniq qo'yish, bahs madaniyatiga rioya qilishni qamrab oladi. Aksiologik komponent haqiqatga intilish, intellektual halollik, ochiqlik, bag'rikenglik va dalilga sodiqlikni anglatadi. Amaliy-transfer komponent esa o'zlashtirilgan fikrlash usullarini yangi mavzu, yangi fan va yangi hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish salohiyatidir ^[4]. Mazkur tarkib summativ baholash vazifalarini ishlab chiqishda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.



1-jadval: Kritik fikrlash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari va summativ indikatorlari

Komponent	Mazmuni	Darsdagi namoyoni	Summativ indikator
Kognitiv	Tahlil, qiyos, umumlashtirish, sabab-oqibatni ajratish, dalil va hukmni farqlash	Muammoli savol, manba tahlili, yechimlar qiyosi	Dalilga tayangan xulosa, mantiqiy ketma-ketlik
Metakognitiv	Fikrlash jarayonini rejalash, kuzatish, nazorat qilish va qayta qurish	Refleksiv yozuv, o'z strategiyasini izohlash	Javobga izoh, xatoni tahlil qilish
Argumentativ-kommunikativ	Fikrni asoslash, qarshi dalilni ko'rish, savol qo'yish, bahs madaniyati	Munozara, esse, og'zaki asoslash	Da'vo-dalil-izoh birligi, qarshi pozitsiyaga munosabat
Aksiologik	Intellektual halollik, ochiqlik, bag'rikenglik, dalilga sodiqlik	Turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish	Manbaga ehtiyotkor munosabat, xolis baho
Amaliy-transfer	Fikrlash usullarini yangi mavzu va vaziyatlarga ko'chirish	Keys, fanlararo topshiriq, real vaziyat	Yangi sharoitda asosli qaror va yechim

Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik mazmuni haqida gap ketganda, uni oddiy tanqid qilish odati bilan chalkashtirish eng ko'p uchraydigan xatolardan biridir. Aslida, kritik fikrlash inkor madaniyati emas, asoslash madaniyatidir. O'quvchi har qanday fikrni rad etishga emas, balki uni tekshirishga, dalillarini aniqlashga, yashirin taxminlarini ko'rishga va muqobil pozitsiyalar ichidan eng maqbulini tanlashga o'rganadi. Mazkur jihat pedagogik faoliyat uchun alohida ahamiyatga ega, chunki maktab amaliyotida o'quvchi faoliyatini boshqarish, fan mazmunini anglatish va tarbiyaviy vaziyatlarni hal etishda shaxsning mustaqil, ammo mas'uliyatli fikrlashi zarur bo'ladi. UNESCO va OECD doirasidagi yondashuvlarda ham kritik fikrlash shaxsiy muvaffaqiyat bilan bir qatorda fuqarolik hayoti, ijtimoiy hamkorlik va ongli tanlov uchun zarur tayanch kompetensiya sifatida baholanadi [1; 6].

Didaktik jihatdan eng muhim masala kritik fikrlashni qachon va qanday vaziyatda rivojlantirish mumkinligi bilan bog'liq. Bu sifat tayyor qoidani yodlash orqali shakllanmaydi. U tanlov talab qiladigan, bir nechta yechimga ega, dalillarni tortish zarur bo'lgan, noaniqlik unsuri saqlanadigan o'quv vaziyatlarida rivojlanadi. Demak, kritik fikrlash uchun dars mazmunining o'zi yetarli emas; darsning ichki didaktik arxitekturasini ham o'zgarishi kerak. O'quvchi savolni eshituvchi emas, savol qo'yuvchi subyektga aylanishi; topshiriq ijrochisi emas, yechim muallifiga aylanishi; baholash obyekti emas, baholash mezonlarini tushunuvchi va ularga tayanuvchi ishtirokchiga aylanishi lozim. Shundagina kompetensiya shaxsning ichki mulkiga aylanadi. Mazkur fikr kritik fikrlashni maxsus o'rgatish, unga doir strategiyalarni muntazam mashq qildirish zarurligi haqidagi ilmiy qarashlar bilan hamohangdir [5].

Summativ baholash masalasiga kelganda, amaliyotda ikki xil qarama-qarshi holat kuzatiladi. Birinchi holatda summativ baholash faqat nazorat vositasi sifatida quriladi va o'quvchini tayyor javobni topishga undaydi. Bunday sharoitda o'quvchi uchun eng muhim narsa fikrlash sifati emas, ball olish strategiyasiga aylanadi. Ikkinchi holatda esa summativ baholash kriterial va rivojlantiruvchi mazmunga ega tarzda loyihalanadi. Ochiq savollar, keys-topshiriqlar, dalillarni saralash, noto'g'ri hukmni aniqlash, xulosani asoslash, o'z javobiga izoh berish singari elementlar baholashga kiritilganda, yakuniy nazoratning o'zi ham kritik fikrlashni namoyon etish maydoniga aylanadi [2]. Hatto ayrim tadqiqotlarda summativ natijalar keyingi o'quv faoliyati uchun diagnostik axborot vazifasini bajarishi, demak, ma'lum sharoitda summativ baholash ham formatif samaraga ega bo'lishi ta'kidlanadi [4]. Masalaning tagida yotgan gap oddiy: baholash nimani o'lchasa, ta'lim ko'pincha o'sha tomonga yo'naladi. Ball xotirani o'lchasa, xotira ishlaydi.

Dalillashni o'lchasa, tafakkur ter to'kadi. Shu asosda kritik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi summativ baholash uchun bir necha didaktik talablarni ajratish mumkin. Avvalo, baholash mezonlari oldindan aniq va shaffof bo'lishi kerak. O'quvchi yaxshi javob nimalar bilan tavsiflanishini bilmas ekan, uning fikrlash jarayonini ongli boshqarishi qiyinlashadi. Keyingi talab topshiriqning mazmuniga taalluqli. Savol faqat reproduktiv javobni emas, tahlil, qiyos, izoh, dalil tanlash, xulosa chiqarish va qarshi pozitsiyani ko'rishni talab qilishi lozim. Uchinchi talab baholash vositalarining xilma-xilligidir. Faqat test bilan cheklanish kritik fikrlashning butun tarkibini qamrab olmaydi; esse, qisqa analitik javob, mini-loyiha, argument xaritasi, jadvalni sharhlash, manbani ekspertiza qilish kabi vositalar ham qo'llanishi zarur [2; 3]. To'rtinchi talab refleksiyadir. Yakuniy baholashdan keyingi qisqa tahliliy mulohaza o'quvchining xatosini ko'rishni, mezonni anglash darajasini chuqurlashtirishi va keyingi faoliyatini rejalashtirishiga yordam beradi. Demak, summativ baholashning rivojlantiruvchi kuchi topshiriq turida emas, uning didaktik loyihadidir.

Natijalarning yana bir muhim tomoni kritik fikrlash kompetensiyasining o'qituvchi faoliyatidan ajratib bo'lmazligini ko'rsatadi. Mazkur kompetensiya o'quvchida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi; u pedagog tomonidan yaratilgan intellektual muhit, savol berish madaniyati, xatoga munosabat va dalilga nisbatan talabchanlik orqali shakllanadi. O'qituvchi tayyor hukmni e'lon qiluvchi yagona manba mavqeidan chiqib, muhokamani boshqa-



ruvchi, dalillarni ko'rsatib beruvchi, mezonni ochib beruvchi va fikrlash yo'lini modellovchi subyektga aylanishi zarur. Pedagogik nuqtai nazardan aynan mana shu o'zgarish kritik fikrlash kompetensiyasining tarbiyaviy quvvatini oshiradi. Chunki o'quvchi faqat nima deb o'ylashni emas, qanday o'ylashni, qanday tekshirishni va qanday asoslashi kerakligini o'rganadi. Demak, kritik fikrlash kompetensiyasi mazmunida intellektual faoliyat texnologiyasi bilan birga intellektual etika ham mavjud bo'ladi.

Tahlil asosida kritik fikrlashni rivojlantirishning didaktik prinsiplari ham aniqlashtirildi. Birinchi prinsip muammolilik prinsipidir. O'quv vazifasi o'quvchini tayyor javobni takrorlashga emas, noma'lumga kirishga undashi kerak. Ikkinchi prinsip dalillilik prinsipidir. Har qanday javob manba, fakt, kuzatuv yoki mantiqiy asos bilan mustahkamlanishi lozim. Uchinchi prinsip ko'pvariantlilik prinsipidir. O'quvchi bir xil natijaga eltuvchi turli yo'llarni ko'ra olishi, muqobil talqinlar mavjudligini anglay olishi muhim. To'rtinchi prinsip refleksivlik prinsipidir. Fikrning kuchli va zaif tomonlarini baholash, o'z strategiyasini qayta ko'rib chiqish ta'lim jarayonining ichki qismiga aylanishi zarur. Beshinchi prinsip mezonning shaffofligi prinsipidir. Baholashning ochiq mezonlari o'quvchiga fikrlash sifatini o'zi nazorat qilish imkonini beradi. Mazkur prinsiplar kritik fikrlash kompetensiyasini darsning chekka unsuri emas, balki butun didaktik tizimning ichki mexanizmi sifatida talqin qilishga asos beradi. Muhokama doirasida yana bir jihat alohida e'tiborni tortadi. Kritik fikrlash kompetensiyasini faqat yakka tartibdagi aqliy operatsiya sifatida tushunish amaliy jihatdan tor yondashuvdir.

Zamonaviy ta'limda mazkur kompetensiya kooperativ muloqot, jamoaviy tahlil, manbalarni birgalikda ekspertiza qilish, bahs va muzokara jarayonida ham ochiladi. O'quvchi ayrim hollarda o'zi ko'rmagan zaif nuqtani sherigining savoli orqali ko'radi, qarshi pozitsiyani eshitish orqali o'z dalilining mustahkam yoki sust ekanini anglaydi. Shuning uchun kritik fikrlashning didaktik mazmuni individual va ijtimoiy fikrlash shakllarining uyg'unligida ko'rilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday uyg'unlik summativ baholashda ham hisobga olinishi mumkin. Masalan, individual yozma javob bilan birga qisqa og'zaki asoslash, manba bo'yicha ekspert xulosasi yoki juftlikda bajarilgan tahlilning individual sharhi o'quvchi tafakkurini yanada to'liqroq namoyon etadi. Alohida qayd etish joizki, kritik fikrlash kompetensiyasining rivojlanishi fanlararo xususiyatga ega. U faqat ona tili, tarix yoki ijtimoiy fanlar doirasida emas, matematika, tabiiy fanlar, texnologiya, san'at ta'limi singari yo'nalishlarda ham o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Matematikada isbotning mantiqiyliqi, tabiiy fanlarda gipoteza va dalil munosabati, tarixda manba ishonchlilikini tekshirish, adabiyotda talqinlar qiyosi, texnologiyada yechimning samaradorligini asoslash bir-biridan farq qilsa-da, ularning tagida umumiy fikrlash amallari yotadi. Demak, kritik fikrlash kompetensiyasining didaktik mazmunini fanlar kesimida moslashtirish zarur, lekin uning yadro komponentlari saqlanib qoladi. Ana shu yadro summativ baholash uchun universal indikatorlar tizimini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

XULOSA

Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik mazmuni o'quvchining intellektual mustaqilligi, dalillarga tayangan holda hukm chiqarishi, refleksiv mas'uliyati hamda muloqot madaniyatida namoyon bo'ladi. Didaktik mazmun esa maqsad, mazmun, metod, vosita va baholash mezonlarining kritik fikrlashni yuzaga chiqaradigan hamda mustahkamlaydigan tizimli qurilishi bilan belgilanadi. Mazkur kompetensiya faqat bilimni chuqurlashtirish vositasi emas, balki shaxsni ongli tanlovga, mas'uliyatli qarorga va ilmiy asoslangan pozitsiyaga olib boruvchi ta'lim natijasidir.

Summativ baholash sharoitida kritik fikrlashni rivojlantirish masalasi baholashning reproduktiv modelidan kriterial, ochiq va dalillarga asoslangan modelga o'tishni talab qiladi. Shunday yondashuvda summativ baholash nazoratning yakuniy nuqtasi bo'lib qolmaydi, balki o'quvchining fikrlash sifati ochiladigan pedagogik maydonga aylanadi. Mazkur nazariy talqin keyingi bosqichda summativ baholash uchun indikatorlar, rubrikalar va topshiriq modellarini ishlab chiqishga mustahkam metodik asos yaratadi. Natijada kritik fikrlashni o'lchash bilan uni rivojlantirish o'rtasidagi uzviylik kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. Critical Thinking. – Paris: OECD Publishing, 2024.
2. Liu O. L., Frankel L., Roohr K. C. Assessing Critical Thinking in Higher Education: Current State and Directions for Next-Generation Assessment. – ETS Research Report Series, 2014. – No. 1.
3. Vincent-Lancrin S. Intervention and Research Protocol for OECD Project on Assessing Progression in Creative and Critical Thinking Skills in Education. – Paris: OECD, 2015.
4. Subheesh N. P., Sethy S. S. Learning through Assessment and Feedback Practices: A Critical Review of Engineering Education Settings. – Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 2020. – Vol. 16. – No. 3.
5. Dwyer C. P. An Evaluative Review of Barriers to Critical Thinking in Educational and Real-World Settings. – Journal of Intelligence, 2023. – Vol. 11.
6. UNESCO. Critical Thinking as a Core Competence for the Future. – Adult Education and Development, 2016. – No. 83.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.